



## YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNI AHAMIYATI

**Arziyev G'ayratjon Ismailjonovich**

*Podpolkovnik.*

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti Qurollanish va otish kafedrası boshlig'i o'rinbosari-umumqo'shin va maxsus blinmalar otish tayyorgarligi sikli boshlig'i.*

**Asamatdinov Jalg'asboy Salamatdinovich.**

*Kursant*

*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti  
3-bosqich kursanti*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash o'z dolzarbligi, ahamiyati va o'ziga xos jixatlari borasida fikr yuritilgan.*

**Калит сўзлар:** *vatanparvarlik, oliy majlis, jarayon, ehtiyoj, manaviy-marifiy, shaxsiy tarkib.*

Kirish

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barchamiz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masaladir. Ushbu dolzarb masala uzluksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasidan iborat. Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq olib borilmoqda.

Xususan, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi" da "Vatanparvar" tashkiloti bazasida yoshlarni mehnat bozorida ehtiyoj yuqori bo'lgan kasblarga o'qitishda ko'mak berish mas'uliyati yuklatilgan. Shu bilan birgalikda ularning harbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borilishi ham aytilgan.

Barchamizga ayyonki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarda Vatanni fidokorona himoya qilishga tayyorlik va bunga qodirlikni shakllantirishga yo'naltirilgan. Uning ma'naviy-ma'rifiy va nazariy asosi Vatanni himoya qilish to'g'risidagi zamonaviy tegishli ilm-fan sohalarining xulosalari, xalqimizning Vatan va uni himoya qilish haqidagi tarixiy va zamonaviy amaliy tajribasi,



ilmiy merosi hamda mazkur masala bilan bog'liq umuminsoniy qadriyatlar va zamonaviy talablar hisoblanadi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni turli yot g'oya va tahdidlardan asrash, o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparavr insonlar etib tarbiyalash eng asosiy maqsadlardan biriga aylanmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoev ta'kidlanganidek, "tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash, tafakkur va zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi". Jamiyatda vatanparvar va fidoyi insonlar ko'payishi natijasida ma'naviy-ma'rifiy hayotda hamda boshqa jabhalarda tub ijobiy o'zgarishlar yuzaga keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash hamda uning tadrijiy rivojlanishga vatanparvar shaxs sifatida hissa qo'shish barcha vatandoshlarimizning ezgu orzu umidlaridan biriga aylanmog'i kerak. Darhaqiqat, "Yangi O'zbekiston - barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchiliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda. Uzoq o'tmishdan hozirgi davrgacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oya va amaliy harakatlarda o'z ifodasini topgan el-yurtimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasiga jamuljam bo'ldi. Barchamiz jiplashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishmizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o'zimizni ayamasdan mehnat qilsak, albatta hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi" - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev.

Istiqbolli rejalar va tub demokratik islohotlar vatanparvarlik tarbiyasini yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida olib borishni taqozo etmoqda. Birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkuri va qalbida vatanparvarlik tuyg'ularni shakllantirish amaliyotini "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renessans sari", "Armiya va xalq - bir tanu bir jondir", "Bir ziyoli - bir mahallaga ma'naviy homiy", "Har bir nuroniy - besh nafar yoshga murabbiy", "Bir bolaga yetti mahalla - ota-ona", "Jaholatga qarshi ma'rifat, g'oyaga qarshi - g'oya bilan kurashish", "Biz g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz", "Yangi O'zbekiston - ma'rifatparvar davlat", "Buyuk sarkardalarimizning jasorati va harbiy merosi", "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik", "Millatning dardiga darmon bo'lmoq - chin vazifangizdir", "Inson qadri uchun" tushunchalarning mazmun-mohiyatini tushintirishdan boshlab, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini takomillashtirishga ko'proq e'tibor qartomg'imiz lozim. Bugungi kunda yoshlarni ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va



tarbiyalash eng muhim va asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Darhaqiqat, "Yoshlarning tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy-texnologik talablarini hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uchun bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolalarda tayanch fazilatlarini shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajada ko'tarish darkor".

Jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va davlatning puxta xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston uchun hayotiy zarurdir. Shularni nazarda tutib, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat va xalqaro munosabatlarning sub'ekti sifatida o'zining mudofaa siyosatini barcha mamlakatlarning tinch-totuv yashashi, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligini, shuningdek, davlatlararo tarkib topgan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarmasligini hurmat qilish printsiplariga asoslaydi. Ushbu printsiplardan kelib chiqib, Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans davrida O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti ko'magida yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda hamda ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirishda, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchini kuchaytirishda, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda salmoqli ishlarni bajarishga erishadi, degan umiddamiz.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoevning ta'kidlanganidek, "Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baqquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda. Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharaflari kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg'otmoqda".

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi umumiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosi vatanparvarlik tarbiyasidir. Shunga ko'ra, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi har bir fuqaroning va o'sib kelayotgan yoki avlodning eng kichik yoshlik davrlaridan boshlab o'zlashtirib boradigan barcha ta'lim-tarbiyasi, bilimi, e'tiqodi, dunyoqarashining ajralmas qismi bo'lgan vatanparvarlik tarbiyasiga asoslanadi. Vatanparvarlik tarbiyasi tushunchasi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limi tushunchalariga nisbatdan kengroq ma'noni bildiradi. Yuqorida aytganimizdek, vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limi har bir insonning tug'ilgan kundan boshlab, umrining oxirigacha davom etadi. "Vatan" arabcha so'z



bo'lib, o'zbek tilida tug'ilib o'sgan joy, yurt, maskan ma'nolarini anglatadi. Dono xalqimiz bejiz aytmagan "Vataning tinch – sen tinch", "Ona yurtning – olting beshiging", "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas", "El g'amini bilgan elda doston", "Vatan gadosi – kafan gadosi", "Vatansiz inson – kuysiz bulbul", "Kishi yurtida shoh bo'lguncha o'z elingda cho'pon bo'l".

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash — bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasida" harbiy-vatanparvarlikning bosqichlari va yo'nalishlari aniq va ravshan bayon etilgan. Shunga ko'ra, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limi o'zaro uyg'un tarzda quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3—7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multafil'm va turli o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda (7—16 yoshdagilar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi.

Uchinchi bosqichda (16 — 18 yoshdagilar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

To'rtinchi bosqich (18—30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiy va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi.

"Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Kontseptsiyasi" nafaqat vatanparvarlik tuyg'ulari, balki milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganishga hamda tahlil etish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondashlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Yoshlarning qalbida, ongu tafakkurida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish uchun, bizning nazarimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida 10-11-



sinf o'quvchilari ishtirokida oliy harbiy bilim yurtlariga kirishdagi tanlov shartlarini (tibbiy ko'rik, jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, test sinovlari) mujaasamlashtirgan 3 bosqichli ko'p kurashli harbiy sport musobaqasini o'tkazish bo'yicha qo'shma asosida kirish uchun yo'llanma sohibiga aylandi (O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti bundan mustasno). Xuddi shunday, ko'p kurashli harbiy sport musobaqasini 9-sinf o'quvchilari ishtirokida ham o'tkazilib, eng yuqori natijaga erishgan, ya'ni respublika bosqichi g'oliblari o'zi istagan "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylariga kvota asosida kirish uchun tegishli yo'llanmaga ega bo'ladi.

#### FAOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axatov, S. A., & Akhmatkulov, U. M. (2021). Basics of pre-conscription military training subject. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 441-447.
2. Saidov, I. M., Axmatqulov, U. M., & Abdullayev, B. T. (2020). OMMAVIY VA INTERNET AXBOROT RESURSLARINING YOSHLARDA VATANGA SODIQLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDAGI BOG'LIQLIKLAR. *Academic research in educational sciences*, (4), 199-203.
3. Собиров, О. Ф., & Ахмадкулов, У. М. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ. *Мировая наука*, (11), 306-308.